



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Special Issue | pp. 86-91 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AUDITORLIK TEKSHIRUVLARIDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI BAHOLASHNING USLUBIY MASALALARI



I.f.d., professor Avlokulov Anvar Ziyadullaevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish jarayonida ichki nazorat tizimini baholashning ahamiyati yoritilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ichki nazoratning komponentlari bo'yicha nazorat amallarini qo'llash jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: audit, nazorat, ichki nazorat tizimi, nazorat muhiti, nazorat amallari, auditorlik dalillar, auditorlik xulosasi.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ОЦЕНКИ СИСТЕМЫ ВНУТРЕННЕГО КОНТРОЛЯ ПРИ АУДИТОРСКИХ ПРОВЕРКАХ

Д.э.н., профессор Авлокулов Анвар Зиядуллаевич
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье подчеркивается важность оценки системы внутреннего контроля в ходе аудиторских проверок. В результате проведенного исследования разработаны рекомендации по совершенствованию процесса применения контрольных процедур по компонентам внутреннего контроля.

Ключевые слова: аудит, контроль, система внутреннего контроля, контрольная среда, контрольные процедуры, аудиторские доказательства, аудиторское заключение.

METHODOLOGICAL ISSUES OF ASSESSING THE INTERNAL CONTROL SYSTEM DURING AUDITS

Doctor of Economics, Professor Avlokulov Anvar Ziyadullaevich
Tashkent state university of economics

Abstract. This article highlights the importance of assessing the internal control system during audits. As a result of the study, recommendations were developed for improving the process of applying control procedures for internal control components.

Key words: audit, control, internal control system, control environment, control procedures, audit evidence, audit report.

Kirish qismi

Ichki nazorat tizimini baholash majburiy auditorlik tekshiruvida ham, tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvida ham amalga oshirilishi kerak. Chunki ichki nazorat tizimining holati auditorlik riskiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek ichki nazorat tizimiga baho berilganida muhimlik darajasining muayayn chegarasi belgilanadi va mazkur chegara audit umumiy rejasi va dasturining hajmiga hamda auditorlik tekshiruvlarida qo'llaniladigan amallar miqdoriga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Auditor auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotgan subyektning faoliyatini, ichki nazorat tizimini, firibgarlik harakatlari natijasida moliyaviy hisobotning muhim buzib ko'rsatishlar riskini aniqlashi va baholashi, keyingi audit amallarini rejalashtirish va amalga oshirish uchun yetarli darajada tekshirishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Auditorlik tekshiruvlarida ichki nazorat tizimini baholash masalalariga iqtisodchi olimlarning asarlarida keng e'tibor qaratilgan.

Litvalik iqtisodchi olimlar V.Lakis va L.Giriunaslarning ta'kidlashicha, ichki nazorat korxonaning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga yordam beruvchi instrumentlardan biridir. Korxonada ichki nazorat samarali tashkil qilingandagina potensial rivojlanishni obyektiv baholash, risklarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkoniyati tug'iladi [1].

AQSHlik iqtisodchi olimlar William F. Messier, Jr., Steven M. Glover, Douglas F. Prawittlarning fikricha, ichki nazorat rahbariyat o'zining boshqaruva vazifalari qay darajada bajarayotganligini ko'rsatib beradi. Ya'ni rahbariyat tomonidan aktivlar ustidan samarali nazorat o'rnatilgan bo'lsa, ichki nazorat tizimi ishonchli hisoblanadi [2].

Iqtisodchi olimlar Alvin A. Arens, Randal J. Elder, Mark S. Beasleylarning fikricha, ichki nazorat tizimi rahbariyatga kompaniya o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lган nazorat amallaridan iborat bo'ladi. Ushbu amallar birgalikda kompaniyaning ichki nazoratini tashkil etadi [3].

Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO) da belgilanishicha, ichki nazorat tashkilotning direktori, menejmenti va boshqa xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan jarayon hisoblanib, quyidagi kategoriylar bo'yicha maqsadlarga erishishda ishonchni ta'minlaydi: samaradorlik va operatsiyalarning haqqoniyligi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi, qabul qilingan qonun va qoidalarga rioya qilish, aktivlarni noqonuniy kirim qilish, foydalanish va hisobdan chiqarishdan himoya qilish [4].

Rick Hayes, Roger Dassen, Arnold Schilder, Philip Wallage larning ta'kidlashicha, ichki nazorat nafaqat buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish uchun, balki tashkilotni boshqarish uchun ham zarurdir. Tashqi auditorlardan tortib, tashkilot rahbariyati, direktorlar kengashidan tortib, yirik aksiyadorlar ichki nazoratdan manfaatdor hisoblanishadi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida tashkilot rahbariyatidan ichki nazoratning samaradorligi xususida yillik hisobot talab etiladi [5].

Karla M. Johnstone, Audrey A. Gramling, Larry E. Rittenberg larning fikricha, ichki nazorat tashkilotga o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishmaslik riskini pasaytiradi. Tashkilot maqsadlariga foyda olish, operatsiyalar samaradorligini ta’minlash, yuqori sifatlari mahsulotlar ishlab chiqarish yoki yuqori sifatlari xizmatlar taqdim etish, normativ talablarga rioya qilish, foydalanuvchilarga ishonchli moliyaviy axborotlarni taqdim etish misol bo‘la oladi [6].

Ibrahim Nandom Yakubu, Mohammed Mubarik Alhassan, Abdul-Nasiru Iddrisu Alhassan, Jamaldeen Adam, Mujeeb Rahman Sumaila lar ta’kidlashicha, banklarning samarali, xavfsiz va barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun ichki nazorat tizimiga asoslangan ishonchli buxgalteriya hisobi mavjud bo‘lishi shart. Samarali ichki nazorat tizimi banklarni boshqarishning muhim komponenti hisoblanadi va xavfsiz hamda ishonchli faoliyatning asosi hisoblanadi [7].

Ironkwe Uwaoma, Promise A. Ordularning fikricha, ichki nazorat tizimi rahbariyat uchun qarorlar qabul qilish jarayonida foydalaniladigan buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining ishonchlilagini ta’minlab beradi [8].

R.T.Nuraliyev fikricha, “Ichki nazorat - bu korxona faoliyatiga kiritilgan va buxgalteriya hisobi, nazorat va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan doimiy jarayon” [9].

Muallif tomonidan olib borilgan boshqa tadqiqotda “buxgalteriya hisobi ishlarida ichki nazorat tizimining samarali yo‘lga qo‘yilishi moliyaviy hisobotlarning sifatlari tuzilishiga olib keladi”, degan xulosa shakllantirilgan [10].

Yuqorida ta’kidlangan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, iqtisodchi olimlarning fikrlarida asosan ichki nazoratning mohiyati va ularni qo‘llash maqsadlari yoritilgan. Biroq, ichki nazorat tizimini baholashning uslubiy masalalariga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonda auditorlik tekshiruvlarida ichki nazorat tizimini baholashning uslubiy asoslarini o‘rganishda monografik kuzatish, dialektik va tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, qiyosiy va solishtirma tahlil, taqqoslash, guruhlashtirish kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Ichki nazorat tizimi samaradorligini baholashda, avvalo, muhimlik darajasiga e’tibor qaratish kerak. Chunki muhimlik darajasi auditning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanib, auditorlik tekshiruvlarining barcha jarayonlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Agarda ichki nazorat tizimi samaradorligi past deb baholansa, muhimlik darajasi yuqori belgilanishi mumkin. Aksincha ichki nazorat tizimi samaradorligi yuqori deb belgilansa, muhimlik darajasi past deb belgilanishi mumkin.

Muhimlik darajasining past yoki yuqori belgilanishi auditorlik xulosasining turiga va auditorning javobgarlik darajasiga ta’sir etadi. Agarda muhimlik darajasi qanchalik past belgilansa, shunchalik ko‘p dalil to‘planadi va auditorlik xulosasi ham ishonchli bo‘lib, modifikatsiyalanmagan fikr bildirilishi mumkin. Aksincha muhimlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, shunchalik kam dalil to‘planishi va modifikatsiyalangan fikrdan biri tanlanishi mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki nazorat tizimiga baho berishda nafaqat aktivlarning butligini saqlash yoki moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, balki hisob siyosatida belgilangan qoida va talablarga qay darajada riosa qilinayotganligini ham tekshirish talab etiladi. Xususan, hisob siyostida belgilangan usul bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralarning baholayotganligi, asosiy vositalarga qonunchilik talablari asosida amortizatsiya hisoblanayotganligi, mahsulot tannarxi to‘g‘ri aniqlanayotganligi, inventarizatsiyaning o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilayotganligi holatlariga baho berish kerak.

Ichki nazorat tizimiga baho berishda, shuningdek, aloqador tomonlar bilan bog‘liq operatsiyalar va faoliyat uzlusizligi bo‘yicha rahbariyatning taxminini ham ko‘rib chiqish kerak. Mazkur jarayonda rahbariyat tomonidan bildirilgan taxmin bilan auditor tomonidan shakllantirilgan taxmin o‘rtasidagi faqrli jihatlarga baho berish zarur.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki nazorat tizimi samarali ishlasa, biznes-rejada belgilangan ko‘rsatkichlarga erishish imkoniyati ta’milanadi. Biznes-rejadagi ko‘rsatkichlarga baho berishda auditor tomonidan tahliliy amallarni bajarish talab etiladi. Auditorlik tekshiruvlarida auditor tomonidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan usullar juda ko‘p bo‘lib, biroq aynan tahliliy amallar amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladigan usul hisoblanadi. Mazkur usul orqali moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sir etayotgan omillar va ularning ta’sir darajasini aniqlash mumkin. Tahliliy amallarni qo‘llash asosida auditor tomonidan ichki nazorat tizimi samaradorligini yanada aniqroq baholash imkoniyati tug‘iladi.

Auditorlik tekshiruvlarida riskni kamaytirish uchun audit batafsil rejalshtirilishi, iloji boricha barcha obyektlarni sinchiklab tekshirish talab etiladi. Auditorlik tekshiruvlarida barcha obyektlarning qamrab olinishi firibgarlik va xato holatlarini aniqlashga hamda auditorlik riskini pasaytirishga olib keladi.

Auditorlik tekshiruvlarida ichki nazorat tizimi samaradorligiga baho berishda ko‘plab usullar va vositalardan foydalanish mumkin. Biroq amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladigan usul so‘rov jo‘natish hisoblanadi. Mazkur usul tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyati, korporativ boshqaruvga mas’ul shaxslar hamda moddiy javobgar shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Auditor tomonidan mazkur shaxslarga quyidagi masalalar yuzasidan savollar berilishi mumkin:

korporativ boshqaruvga mas’ul shaxslar, shuningdek ichki audit va buxgalteriya xizmati xodimlariga firibgarlik holatlarini oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rilganligi;

moddiy javobgar shaxslarga asosiy vositalar, tovar-moddiy zaxiralarning saqlanishi va ishlatilishi bo‘yicha doimiy nazorat mavjudligi;

xodimlar bo‘limi va boshqa bo‘limlar tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektda faoliyat yuritayotgan ishchilar, boshqaruv xodimlari, mutaxassislar va texnik xodimlar tomonidan ish yuritish qoidalariiga amal qilinayotganligi.

Auditning xalqaro standartlarida nazorat muhitni ichki nazorat tizimining dastlabki va eng muhim elementi hisoblanadi. Nazorat muhitni xo‘jalik yurituvchi subyektda nafaqat buxgalteriya hisobi ishlari holati yuzasidan, balki butun faoliyat nuqtayi nazaridan ham mavjud bo‘lishi shart. Sog‘lom va adolatli nazorat muhitining mavjud bo‘lishi, avvalo, xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbarining sofkilligi, halolligi va xolisligiga bog‘liq bo‘ladi.

Ichki nazorat tizimiga baho berishda nazorat amallari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda xo‘jalik yurituvchi subyektda hisobot davrida amalga oshirilgan operatsiyalar, shuningdek mazkur subyekt tasarrufida bo‘lgan aktivlar ustidan doimiy ravishda nazorat amalga oshirilgan bo‘lsa, nazorat amallarining qo‘llanilish darajasini ijobjiy holat sifatida qabul qilish mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ichki nazorat tizimiga mas’ul shaxslar tomonidan quyidagi nazorat amallari bajarilishi mumkin (1-rasm).

Ichki nazorat tizimiga mas’ul shaxslar tomonidan bajariladigan nazorat amallari

biznes rejada belgilangan ko‘rsatkichlarga erishish maqsadida har bir xodimga ularning malakasi va qobiliyatiga qarab vazifalarni taqsimlash

qo‘l ostidagi xodimlar tomonidan ularga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini tekshirib borish

xo‘jalik yurituvchi subyekt tasarrufida bo‘lgan aktivlar, xususan asosiy vositalar, kapital qo‘yilmalar, tovar-moddiy zaxiralar va pul mablag‘larining mavjudligi, ularning oqilona hamda maqsadli sarflanishi ustidan nazorat olib borish

1-rasm. Ichki nazorat tizimiga mas’ul shaxslar tomonidan bajariladigan nazorat amallari¹

Risklarni boshqarish ichki nazorat tizimining navbatdagi, biroq baholanishi qiyin bo‘lgan elementi hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvlarida risklarni baholash muhim hisoblanadi. Chunki nafaqat mamlakat miqyosidagi, balki jahon miqyosidagi iqtisodiy konyunkturadagi turli o‘zgarishlar xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga salbiy ta’sir etib, ularda biznes risklarining oshishiga olib kelishi mumkin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyat ko‘lamining bir mamlakat hududidan kengayib, xalqaro darajada integratsiyalashuvi kuchayib borsa, mazkur holatda ham biznes risklari oshishi mumkin. Chunki faoliyat ko‘lamining haddan tashqari kengayishi, tarkibida tobe va sho‘ba korxonalarining ko‘payishi hisobiga faoliyat ustidan nazorat pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ichki nazorat tizimining yakuniy elementi monitoring hisoblanib, ichki nazorat uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar tomonidan nazorat amallarining qo‘llanilishi doimiy ravishda monitoring qilib borilishini taqozo etadi. Nazorat vositalarining monitoringi muntazam tekshiruvlar yoki alohida tekshiruvlar orqali amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar

Xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari yoki uning tarkibiy bo‘linmasi rahbari tomonidan quyidagi yo‘nalishlarda nazorat olib borilishi va topshiriqlarning bajarilishi tekshirib borilishi kerak:

biznes rejada belgilangan ko‘rsatkichlarga erishilganlik darajasi;

¹ Muallif ishlanmasi.

har xil tarkibiy bo'linmalar tomonidan tayyorlangan ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash, farqli vaziyatlar yuzaga kelganida ularga obyektiv baho berish;

xo'jalik yurituvchi subyektdagi ma'lumotlarni faoliyat yo'nalishlari bo'yicha o'zaro taqqoslash.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbariyati tomonidan yuqorida belgilangan yo'nalishlarda topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilishi ichki nazorat tizimi samaradorligining oshishiga va muhim buzib ko'rsatishlar riskining pasayishiga olib keladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Vaclovas Lakis, Lukas Giriūnas. The concept of internal control system: theoretical aspect// EKONOMIKA 2012 Vol. 91(2). ISSN 1392-1258.
2. William F. Messier, Jr., Steven M. Glover, Douglas F. Prawitt. Auditing & assurance services: a systematic approach, AS6 edition. The McGraw-Hill Companies, Inc., 1221 Avenue of the Americas, New York, NY, 10020. Copyright © 2008 by The McGraw-Hill Companies, Inc. page 192.
3. Alvin A. Arens, Randal J. Elder, Mark S. Beasley. Auditing and assurance services: an integrated approach. Copyright © 2012, by Pearson Education, Inc., Upper Saddle River, New Jersey, 07458. —14th ed. Page 290.
4. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO), 1992, Chapter 1. Definition, Internal Control – Integrated Framework, American Institute of Certified Public Accountants, Jersey City, New Jersey, p. 9.
5. Rick Hayes, Roger Dassen, Arnold Schilder, Philip Wallage. Principles of auditing: An Introduction to International Standards on Auditing. Edinburgh Gate, Harlow, Essex CM20 2JE, England. © Pearson Education Limited 2005. Page 230.
6. Karla M. Johnstone, Audrey A. Gramling, Larry E. Rittenberg. Auditing: A Risk-Based Approach to Conducting a Quality Audit, Ninth Edition. ISBN-13: 978-1-133-93915-3. Copyright 2013. South-Western, 5191 Natorp Boulevard, Mason, OH 45040, USA. p 74.
7. Ibrahim Nandom Yakubu, Mohammed Mubarik Alhassan, Abdul-Nasiru Iddrisu Alhassan, Jamaldeen Adam, Mujeeb Rahman Sumaila. The Effectiveness of Internal Control System in Safeguarding Assets in the Ghanaian Banking Industry (The Case of Agricultural Development Bank). International Journal of Management and Commerce Innovations ISSN 2348-7585 (Online) Vol. 5, Issue 1, pp: (544-557), Month: April - September 2017.
8. Ironkwe Uwaoma, Promise A. Ordu. The impact of internal controls on financial management: a case of production companies in Nigeria. // International Journal of Economics, Commerce and Management, United Kingdom. Vol. III, Issue 12, December 2015. <http://ijecm.co.uk/>
9. Nuraliyev R.T. Ichki nazorat tizimini korxonalarda tashkil etish va uning ishlab chikarish samaradorligini oshirishdagi roli va ahamiyati. //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. №3(8), August, 2023.
10. Avlokulov, A. Z. (2021). MAIN AREAS OF PREPARATION OF FINANCIAL STATEMENTS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS. *Theoretical & Applied Science*, (1), 62-65.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

